

Aholini Oziq-Ovqat Mahsulotlari Bilan Ta'minlashda Dehqonchilikning Ahamiyati

Dedajanova Xilola Baxtiyor qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, 1b-22 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash zaruriyati va mohiyati yoritilgan. Unda dehqonchilik sohasining ahamiyati, yetishtirilayotgan ayrim turdagi mahsulotlarning hajmi, hududlar bo'yicha tahlillari keltirilgan. SHuningdek, dehqonchilik sohasidagi ayrim muammolar ko'rsatib o'tilgan va tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat mahsulotlari, xavfsiz va vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sog'lom ovqatlanish, aholi sonining oshib borishi, dehqonchilik mahsulotlari, donli ekinlar, sabzavotlar, kartoshka, poliz ekinlari, meva va rezavorlar, uzum, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqish.

Kirish

Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlamogda.

Zero, ideal holatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari barchani oziq-ovqat bilan to'liq ta'minlash va odamlar uchun risoladagidek daromad manbaini yaratib berishga qodir. Boz ustiga, bunday holatda inson manfaatlari yo'lida ham qishloq xo'jaligi rivojlanadi, ham atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi ta'minlanadi [8].

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, mavjud yer, suv va boshqa resurslardan yanada oqilona foydalanish, zamonaviy va intensiv texnologiyalarni qo'llash orqali qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish borasida olib borilayotgan tizimli ishlar asta-sekin o'z samarasini bermogda.

Xususan, ekin maydonlaridan yil davomida samarali foydalanish hisobiga asosiy, oraliq va takroriy ekin sifatida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ekinlari ekilib, ulardan yuqori hosil yetishtirilib, nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorlarda ham savdo hajmini oshirishga imkoniyat yaratildi.

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "O'zbekiston zamini o'zining qadimiy va boy dehqonchilik an'analari, g'oyat xilma-xil, mazali va noyob qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan azaldan shuhrat qozonib keladi. Agrotarmoq iqtisodiyotimizdagi yetakchi sektorlardan biri bo'lib, mehnatga layoqatli aholimizning 27 foizi ushbu sohada mehnat qiladi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini yanada samarali va resurs tejaydigan sohaga aylantirish, qishloqda aholi hayot darajasini yaxshilash, xalqimizni arzon va barqaror narxlarda xavfsiz va vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sog'lom ovqatlanishni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor berilmogda"[1].

Agrar va oziq-ovqat sohaslarining har bir tarmog'ini yangi va integratsiyalashgan yondashuv asosida boshqarishga o'tilishi, ushbu tarmoqlarning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan bir qatorda, O'zbekiston qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish va qo'shimcha qiymatni va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim

omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda jahonda qishloq xo'jaligi sohasida yetishtirilayotgan mahsulotlarda dehqonchilik ham o'zining alohida ahamiyati borligi bilan ajralib turadi. U aholini vitaminlarga boy bo'lgan meva-sabzavot hamda don mahsulotlari bilan ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun sohani rivojlantirish, undagi mavjud muammolarni bartaraf etish qishloq xo'jaligidagi dolzarb masalalardan sanaladi.

Asosiy qism

BMT institutlari tahlilicha, aholi sonining o'sishiga insoniyat qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlarga bosh omil bo'lmoqda. Aholining o'sishi asosan Osiyo va Afrika qit'alari hisobiga bo'lmoqda.

Aholi sonining oshib borishi bilan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi hech kimga sir emas. Insoniyatni boqish uchun 2050 yilga borib oziq-ovqat mahsulotlarini hozirgiga qaraganda 80 foiz ko'p ishlab chiqarishni taqozo etadi[2].

Masalaning yana bir jihati, qashshoq mamlakatlarda aholi to'yib ovqat yemayotgan bir vaqtda rivojlangan mamlakatlar aholisi ko'p ovqat iste'mol qilishdan semirib ketmoqda, degan qarashlar ham yo'q emas. Insoniyat yashashi uchun mehnat qilish ehtiyoji yuzaga keladi. Bunda har bir oilada sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish, rejalashtirish va zaxiralar yaratib borishni taqozo etadi [3].

Bu sharoitda dehqonchilikni yanada rivojlantirish, undan aholini turli vitaminlarga boy meva-sabzavotlar bilan ta'minlashda foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Dehqonchilik mahsulotlari – joriy yil hosilidan olingan barcha qishloq xo'jaligi ekinlarining mevalar va rezavorlar, uzum, ozuqa ekinlari, urug'lik va o'tqaziladigan ko'chat materiallari, shuningdek, dehqonchilikda tugallanmagan ishlab chiqarish, dehqonchilikning boshqa turdagi mahsulotlari qiymatlarini o'z ichiga oladi.

Etishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 50,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (26 296,0 mlrd. so'm), Andijon (24 913,9 mlrd. so'm), Farg'ona (22 918,8 mlrd. so'm) va Buxoro (18 175,7 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy viloyati (6 300,6 mlrd. so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (7 148,4 mlrd. so'm) va Sirdaryo viloyatini (7 713,5 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin[9].

Yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (108,4 %), Jizzax (107,2 %), Namangan (105,4 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (105,4 %) qayd etildi. Navoiy (98,0 %), Andijon (102,8 %), Toshkent (103,0 %), Farg'ona (104,1 %) va Samarqand (104,2 %) viloyatlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

1-jadval. Dehqonchilik mahsulotlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

Hududlar	Mlrd. so'm
Samarqand	26296,0
Andijon	24913,9
Farg'ona	22918,8
Buxoro	18175,7
Toshkent	18128,2
Namangan	17328,7
Surhondaryo	16783,5
Qashqadaryo	15054,0
Xorazm	11697,1
Jizzax	10220,7
Sirdaryo	7713,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7148,4
Navoiy	6300,6

Respublikadagi dehqonchilik mahsulotlari tarkibini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng katta ulush Samarqand (13,0 %), Andijon (12,3 %), Farg'ona (11,3 %) va Buxoro (9,0 %) viloyatlariga to'g'ri kelganligini kuzatishimiz mumkin.

Eng kam ulush Navoiy viloyati (3,1 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,5 %), Sirdaryo viloyati (3,8 %) va Jizzax viloyatida (5,0 %) qayd etildi.

2023 yilning yanvar-dekabrida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 8 426,6 ming t. donli ekinlar (2022 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,5 % ga ko'p), 3 574,1 ming t. kartoshka (3,8 % ga ko'p), 11 553,7 ming t. sabzavotlar (3,5 % ga ko'p), 2 553,5 ming t. poliz (5,5 % ga ko'p), 3 121,7 ming t. meva va rezavorlar (4,1 % ga ko'p), 1 737,6 ming t. uzum (1,3 % ga kam) yetishtirildi[9].

2-jadval. 2023 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		fermer xo'jaliklari	
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
Donli ekinlar	8 426,6	105,5	6 599,8	104,0	795,7	108,8	1 031,1	112,8
Sabzavotlar	11553,7	103,5	4 173,4	103,3	6 924,0	102,7	456,3	120,0
Kartoshka	3 574,1	103,8	994,1	109,5	2 498,6	101,5	81,4	111,1
Poliz ekinlari	2 553,5	105,5	1 418,2	108,0	1 016,3	101,9	119,0	108,0
Meva va rezavorlar	3 121,7	104,1	1 415,0	105,9	1 605,4	103,2	101,3	95,1
Uzum	1 737,6	98,7	777,1	97,5	911,0	99,5	49,5	102,5

2023 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning 78,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 9,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 12,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. SHunga mos ravishda sabzavotlarning 36,1 % i fermer xo'jaliklariga, 59,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, kartoshkaning 27,8 % i fermer xo'jaliklariga, 69,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining 55,5 % i fermer xo'jaliklariga, 39,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning 45,3 % i fermer xo'jaliklariga, 51,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning 44,7 % i fermer xo'jaliklariga, 52,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2023 yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan donli ekinlar 8 426,6 ming tonnani, yoki 2022 yilning mos davri bilan solishtirganda 105,5 % ni tashkil etdi.

2022 yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 4,0 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 8,8 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 12,8 % o'sish qayd etildi.

3-jadval. Hududlar kesimida donli ekinlar yetishtirish

Hududlar	Ming tonna
Farg'ona	926,7
Samarqand	900,3
Qashqadaryo	816,5
Surxondaryo	753,3
Andijon	727,3
Jizzax	695,8
Namangan	678,1
Buxoro	654,0
Toshkent	641,8
Sirdaryo	566,3
Xorazm	496,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	312,2
Navoiy	258,1

Don ekinlarini yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtasida peshqadamlilikni Farg'ona viloyati egalladi. Uning, don ekinlari umumiy hajmidagi ulushi 11,0 %.

Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Samarqand (10,7 %), Qashqadaryo (9,7 %), Surxondaryo (8,9 %), Andijon (8,6 %) va Jizzax (8,3 %) viloyatlarida qayd etildi.

Umumiy hajmdagi past ulush, Navoiy viloyati (3,1 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,7 %) da kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Samarqand (108,8 %), Sirdaryo (108,4 %), Xorazm (107,5 %), Farg'ona (106,8 %), Toshkent (106,4 %) va Buxoro (105,5 %) viloyatlarida qayd etildi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda umumiy makroko'lamda yechimini kutayotgan ayrim muammolar – innovatsiyalardan foydalanish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqish va ularni eksportga yo'naltirish [4,7], kerakli axborot ta'minoti, infrastrukturani rivojlantirish ham bor [5,6]. Shular bilan bir qatorda quyidagi: ekin maydonlarining yetishmasligi, ekologik vaziyatlarni yomonlashuvi, tuproq eroziyasi, yaylovlarning cho'llanishi, havo va suvning ifloslanishi, ichimlik suvi va sug'orish uchun yaroqli suvning keskin tanqisligi va boshqa shu kabi muammolarni ham uchratish mumkin.

Xulosa va takliflar

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyot tarmog'ining aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va bir qator tarmoqlar uchun xom ashyo olishga qaratilgan tarmog'idir. Qishloq xo'jaligi eng muhim sohalardan biri bo'lib, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida mavjud sohadir. Jahon qishloq xo'jaligida 1 milliardga yaqin iqtisodiy faol odam ishlaydi.

Qishloq xo'jaligida dehqonchilik o'ziga xos ahamiyat kasb etib, ushbu sohani rivojlantirish va sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni taklif etamiz: turli ta'sirlarga chidamli bo'lgan urug'larni yetishtirish; barcha resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek ekologik jihatidan xavfsiz bo'lgan usulda suv resurslaridan samarali foydalanish; aholini ayniqsa ayollar salomatligiga foydali bo'lgan sog'lom ovqatlanish dasturlarini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq qirralariga e'tiborni kuchaytirish; agrosanoat kompleksini rivojlantirish; davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yana kuchaytirish; sohada investitsion muhitni yanada jozibadorligini oshirish, sohada kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, kerakli shart-sharoitlarni yaratish va boshqa shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Озиқ-овқат хавфсизлиги бўйича халқаро конференция иштирокчиларига. <https://president.uz/uz/lists/view/6645>

2. Самарқандда Озиқ-овқат хавфсизлиги бўйича халқаро конференция бошланди. <https://www.imv.uz/oz/news/category/yangiliklar/post-1532>
3. Шарипов Қ. Халқаро форматдаги озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда бир-бирини тўлдириш ҳамкорлиги. <https://yuz.uz/news/xalqaro-formatdagi-oziq-ovqat-xavsizligini-taminlashda-bir-birini-toldirish-hamkorligi>
4. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТЬ В НАУКУ № 3 (27) 2019. [https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)
5. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).
6. Dedajanov, V., & Sobirov, M. (2021). The essence of innovative activity and analysis indicators. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1978-1990.
7. Dedajanov, V. N., & Ergasheva, F. I. (2019). ISSUES OF SUPPORT AND STIMULATION OF EXPORTING ENTERPRISES AND WAYS OF THEIR ELIMINATION. *Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова. Вступление. Путь в науку*, (3), 92-103.
8. Холмурадов Р. ва бошқалар. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш – давр талаби. <https://xs.uz/uzkr/post/oziq-ovqat-khavsizligini-taminlash-davr-talabi>.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>